

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 362 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние протекционистской политики на инвестиционные стратегии промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	
Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка	132
Хашимова Дилёра Пахритдиновна	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlari	138
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Import tovarlari bo'yicha aksiz solig'ini undirishning nazariy asoslari	143
Abdurasulov Murodjon Bahrom o'g'li	
Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана	150
Срожиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini nazariy asosi	155
Sultonov Davronjon Rustam o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalari raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli	161
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	170
Islomova Dilrabo Salomovna	
Iqtisodiy masalalarni matritsalar nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	175
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Pul bozori barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarida likvidlikni boshqarish samaradorligi	188
Sattorova Nasiba G'aniyoz qizi	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	192
Akbarjon Iminov	
Аутоиммунные поражения центральной нервной системы, возникающие после стрептококковой инфекции	198
Умарова Саодат Сулаймоновна, Нормакматов Бахтиёр Ботиралиевич	
Iqtisodiyotga yo'naltirilgan investiyalar tahlili	204
Namozov Olim Botirovich	
Creating a favorable climate for investment in agriculture	209
U.I.Djumaniyazov, B.J.Mirzaev	
Davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqaruvni xalqaro standartlari asosida takomillashtirish	214
F.Djalilov	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy su'g'urta qilish xarajatlarini hisobi	222
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
O'zbekistonda bank operatsion xarajatlari buxgalteriya hisobi	227
Qurbonova Sitara Vahobjon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	233
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	
Пути обеспечения стабильного экономического роста в условиях перехода к зелёной экономике, совершенствования государственной экономической политики и повышения эффективности внедрения принципов цикличной экономики	237
Худайбергенова Адалат Негматуллаевна, Убайдуллаев Сирожиддин Жамшидович, Файзиёва Хамида	



Кудратовна, Эшбоев Миржалол Бахромович	
O'zbekiston sanoatining iqtisodiy holatini baholash	241
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari.....	247
Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna	
Soliq tizimida soliq riskini baholash uslubiyoti.....	252
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Budjetni rejalashtirish tizimida jismoniy shaxslar daromadlari bo'yicha prognozlashni takomillashtirishning metodologik asoslari	260
Babaev Shavkat Bayramovich	
Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления.....	267
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Yashil mehmonxonalarda strategik tahlil metodologiyasi	274
Rasulova Nigora Yusupovna	
Цифровая трансформация: новые возможности и современные тенденции в управлении бизнесом и инвестициями.....	279
Баратова Динора Алишеровна	
Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatishning sifati va samaradorligini baholash.....	283
Ikromov Akbar Farxod o'g'li	
Модель внедрения open banking в Узбекистане: предложение на основе международного опыта и локальных особенностей.....	288
Камалов Шухрат Камалович, Аскарова Дилором Хожимуратовна, Баходиров Жасурбек Олёрбек ўғли, Маликов Шохрух Шокирович, Тенгелова Фарангиз Мажид кизи	
O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilishning yo'llari	295
Ashurbayev Farrux Alisher o'g'li, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
AQSH tajribasiga ko'ra eksportni iqtisodiy o'sishga tasiri	299
D.E.Qarshiev	
Iqtisodiyotni tartibga solish orqali aholi farovonligini oshirishning ahamiyati	304
Berdibekov A.	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi moliyaviy savodxonligini oshirishda inklyuziv molianing ahamiyati.....	308
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Problems of the financial mechanism influence for stable and inertial development of enterprises.....	313
Zaynalov Jakhongir Rasulovich, Alieva Susanna	
Tibbiyot turizmni rivojlantirish va uning salohiyatini iqtisodiy baholashning ilmiy va uslubiy asoslari	317
Vofaxojayeva Dilafruz Marufovna	
Turistik destinatsiyalar va raqamli marketing texnologiyalari orqali turizm barqarorligini transformatsiya qilish	322
Nurmuhammadxon Oppoqonov	
Kichik va o'rta biznes moliyaviy barqarorligining kambag'allikni kamaytirishdagi ahamiyati.....	327
Djamalov Xasan Numanjanovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida turizmni rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy salohiyatini baholash.....	335
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
O'zbekiston turizm sektorida tog' turizmining ulushi.....	343
Alimov Abduvakil Komil o'g'li	
O'zbekiston respublikasida investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish va bunda xorij tajribasi.....	348
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	



Tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning holati.....	354
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyasini tanlash va asoslash	358
Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna	



TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI TANLASH VA ASOSLASH

Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna

Xalqaro Nordik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0002-6589-487X

e-mail: Madinochka_90@inbox.ru

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda bozor munosabatlarning chuqurlashuvi va globallashuv kuchayib borayotgan sharoitda O'zbekistonda innovatsion rivojlanish jarayonlarida tadbirkorlik subyektlarining tutgan o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Ishda tadbirkorlikning iqtisodiy taraqqiyotga qo'shayotgan hissasi statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan va innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha strategik yondashuvlar bayon etilgan. Jumladan, innovatsion strategiyalar klassifikatsiyasi, ularning tanlanish mezonlari, matritsa asosida baholash va boshqaruv yondashuvlari batafsil ko'rib chiqilgan. Tadbirkorlik subyektlari uchun mahsulot, jarayon, marketing va boshqaruv innovatsiyalarining joriy etilishi bo'yicha amaliy misollar keltirilgan. Ish innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonida tadbirkorlikning faolligini oshirish uchun ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, innovatsion strategiya, raqobatbardoshlik, strategik boshqaruv, ichki va tashqi muhit, innovatsion natijadorlik, resurslar, innovatsion imkoniyatlar, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract: This scientific work analyzes the role and importance of business entities in the processes of innovative development in Uzbekistan in the context of deepening market relations and increasing globalization. The work highlights the contribution of entrepreneurship to economic development based on statistical data and describes strategic approaches to the introduction of innovations. In particular, the classification of innovation strategies, their selection criteria, matrix-based assessment and management approaches are considered in detail. Practical examples of the introduction of product, process, marketing and management innovations for business entities are presented. The work contains scientifically based proposals and recommendations for increasing the activity of entrepreneurship in the process of transition to an innovative economy.

Key words: Entrepreneurship, innovation strategy, competitiveness, strategic management, internal and external environment, innovative effectiveness, resources, innovative opportunities, economic efficiency.

Аннотация: В данной научной работе анализируются роль и значение субъектов предпринимательства в процессах инновационного развития в Узбекистане в условиях углубления рыночных отношений и усиления глобализации. В работе на основе статистических данных освещается вклад предпринимательства в экономическое развитие и описываются стратегические подходы к внедрению инноваций. В частности, подробно рассматриваются классификация инновационных стратегий, критерии их выбора, матричные подходы к оценке и управлению. Приводятся практические примеры внедрения продуктовых, процессных, маркетинговых и управленческих инноваций для субъектов предпринимательства. В работе содержатся научно обоснованные предложения и рекомендации по повышению активности предпринимательства в процессе перехода к инновационной экономике.

Ключевые слова: Предпринимательство, инновационная стратегия, конкурентоспособность, стратегическое управление, внутренняя и внешняя среда, инновационная эффективность, ресурсы, инновационные возможности, экономическая эффективность.

KIRISH

Bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan va globallashuv jarayonlari jadallashayotgan hozirgi davrda innovatsion rivojlanish har qanday davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotning barqaror va raqobatbardosh bo'lishida tadbirkorlikning roli tobora ortib bormoqda. Tadbirkorlik subyektlari jamiyatda bandlikni ta'minlash, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish, xizmat va mahsulotlar turini kengaytirish, shuningdek, innovatsion g'oyalarni tezda amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lgan eng harakatchan iqtisodiy tuzilmalardandir.

"Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan



hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi" [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2022-yil 06-iyuldagi "2022- 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF165-sonli Farmoni [2] mamlakatimizning innovatsion rivojlanishi va innovatsion iqtisodiyotga o'tishini jadallashtirishni ko'zda tutadi hamda bu boradagi ustuvor vazifalarni belgilab beradi. Innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tatbiq qilish, inson kapitalini, ilm-fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish mazkur strategiyaning bosh maqsadi sifatida ko'rsatildi. Shubhasiz, Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda tadbirkorlik sub'yektlarining innovatsiyalarni joriy etishdagi faolligi muhim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

M.N. Dudin va N.P. Ivashchenko innovatsion rivojlanishni strategik boshqarishning zamonaviy konsepsiyalarini raqobatbardoshlik ustunliklarini shakllantirish manbasiga qarab ikkita guruhga ajratadi: ichki va tashqi muhit asosida [3].

Birinchi holatda, agar raqobatbardoshlik ustunliklarining asosiy manbai ichki muhit bo'lsa, asosiy omillar tashkilotning mavjud kompetensiyalari, resurslari, ko'nikmalari va tashkiliy madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu boshqaruv konsepsiyasining mohiyati tadbirkorlik subyektlarining ichki salohiyati va resurslarini rivojlantirishga qaratilgan.

Ikkinchi holatda, agar raqobatbardoshlik ustunliklarining asosiy manbai tashqi muhit bo'lsa, asosiy omillar tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tez moslasha olish, moslashuvchan tashkiliy tuzilmaning mavjudligi hamda iste'molchilar uchun yangi bozorlar yaratish qobiliyati hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu boshqaruv konsepsiyasining mohiyati tadbirkorlik subyektlarining innovatsiyalarni rivojlantirish uchun tashqi muhit imkoniyatlaridan foydalana olish qobiliyatiga bog'liq [4].

Ilmiy adabiyotda innovatsion strategiyalarni turli tasniflash mezonlariga ko'ra guruhlash hamda ularning tavsifini berish taklif etiladi [5].

Eng keng tarqalgan innovatsion strategiyalar quyidagilardir: hujumkor (o'z innovatsiyalarini yaratish va o'zlashtirishga yo'naltirilgan), himoya strategiyasi (mavjud raqobatbardoshlik pozitsiyalarini saqlashga yo'naltirilgan), imitatsion strategiya (raqobatchilarning innovatsiyalarini moslashtirishga qaratilgan) [6].

Yu.A. Doroshenko va D.V. Krivtsova innovatsion strategiyani tanlashning zamonaviy usullari sifatida struktura-morfologik tahlil, nashr faolligi ko'rsatkichlarini aniqlash, patent-analoglar, terminologik va leksik tahlil usullarini keltirib o'tadi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Innovatsion natijadorlik darajasi va tadbirkorlikning innovatsion imkoniyatlarini hisobga olgan holda innovatsion strategiyani tanlash taklif etilgan va asoslab berilgan. Uning asosi innovatsiyalarni resurslar bilan ta'minlash hamda tadbirkorlik subyektlarining ularni noaniq tashqi muhit sharoitida samarali qo'llash qobiliyatiga asoslangan.

Innovatsion strategiyani tanlash bo'yicha matritsa taklif qilingan bo'lib, u ikki o'q asosida shakllantirilgan: innovatsion natijadorlik darajasi (vertikal o'q) va innovatsion imkoniyatlar darajasi (gorizontal o'q). Matritsaning har bir to'qqizta katagi muayyan innovatsion strategiyaga mos keladi (1-rasm).

Innovatsion samaradorlik darajasi	Yuqori	Sekin-asta o'sish strategiyasi	Tezlashtirilgan o'sish strategiyasi	Tezlashtirilgan o'sish strategiyasi
	O'rtacha	Bozor pozitsiyasini egallash strategiyasi	Sekin-asta o'sish strategiyasi	Tezlashtirilgan o'sish strategiyasi
	Qisqa	Bozor pozitsiyasini egallash strategiyasi	Bozor pozitsiyasini egallash strategiyasi	Sekin-asta o'sish strategiyasi
		Qisqa	O'rtacha	Yuqori

1-rasm - Tadbirkorlik sohasida innovatsion strategiyani tanlash matritsasi [muallif tomonidan tuzilgan]

Innovatsiyalar samaradorligi darajasi (vertikal o'q) – kompleks ko'rsatkich bo'lib, u omillarning (F2, F5) og'irlikli yig'indisidan tashkil topgan va innovatsiyalar natijalari hamda tadbirkorlik sektorida mahsulot innovatsiyalarining rivojlanishini mezodarajada ifodalaydi.



Innovatsion imkoniyatlar darajasi (gorizontal o'q) – kompleks ko'rsatkich bo'lib, u omillarning (F1, F3, F5) og'irlikli yig'indisidan tashkil topgan va tadbirkorlik sektorida innovatsiyalarni rivojlantirish uchun ichki muhit (innovatsion resurslar; innovatsiyalarga investitsiyalar) hamda tashqi muhitni tavsiflaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident qarorlari, hukumat dasturlari va investitsiya loyihalari orqali bu sohaning innovatsion yo'nalishda rivojlanishiga qulay muhit yaratilmoqda. Shunday sharoitda tadbirkorlik subyektlarining innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishlari uchun samarali strategiyalarni tanlash va ularni ilmiy asoslash dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Respublikamizda 411 203 ta tadbirkorlik sub'yektlari faoliyat yuritgan. 2021-yil statistika ma'lumotlariga ko'ra YalMning 55,7 % i tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan yaratildi. Jami qurilish ishlarining 72,5 % i, sanoat mahsulotlarining 27,9 % i ushbu soha vakillari tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Tadbirkorlikning mamlakat umumiy eksportidagi ulushi 20,5 % ni, importda – 51,7 % ni tashkil etdi. Ish bilan band jami O'zbekiston aholisining 74,5 % dan ortig'i ushbu tarmoqda mehnat qilmoqda [7]. Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati sub'yektlari uchun ".....Biznesni boshqarishdagi o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishi, faoliyatiga innovatsiya va ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish" [8] bo'yicha keng ko'lamdagi islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, Jahon banki guruhi tomonidan O'zbekiston Respublikasida korxona va tashkilotlarning innovatsion faolligini baholash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot xulosalariga ko'ra, boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar bilan solishtirganda O'zbekiston korxonalarining innovatsion faolligi nisbatan past, ushbu sohada hanuzgacha tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik yirik hamda davlat korxonalaridan ortda qolmoqda.

Shunday qilib, tadbirkorlik sohasida innovatsion strategiya tanlash matritsasini shakllantirishda, bir tomondan, ichki muhit, ikkinchi tomondan esa tashqi muhit inobatga olinadi. Bular tadbirkorlik sektorida raqobatbardoshlik afzalliklarini shakllantirishning asosiy manbalari bo'lib, M.N. Dudin va N.P. Ivashchenko fikriga ko'ra, innovatsion rivojlanishning zamonaviy strategik boshqaruv konsepsiyalarining asosini tashkil etadi [5].

Innovatsiya — bu yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan mahsulotlar, xizmatlar, ishlab chiqarish texnologiyalari, boshqaruv usullari yoki marketing yondashuvlarining amaliyotga joriy etilishi jarayonidir. Bu tushuncha nafaqat texnologik yangiliklarni, balki boshqaruv va tashkiliy yangiliklarni ham o'z ichiga oladi. Innovatsiyaning asosiy maqsadi — iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishdir.

Innovatsiyalar iqtisodiyotda turli jihatdan o'z ifodasini topadi. Ular mahsulot va xizmatlarning sifatini yaxshilash, yangi bozorlar yaratish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, shuningdek, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish imkonini beradi. Shu tariqa, innovatsiyalar iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyotning muhim drayverlaridan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyotida innovatsiyalar iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirishda strategik ahamiyatga ega. Ayniqsa, zamonaviy raqobat sharoitida korxonalar yangi texnologiyalar va yondashuvlarni joriy etmasdan muvaffaqiyatga erishishi qiyinlashadi. Innovatsiyalar orqali korxonalar o'z mahsulotlarini takomillashtirib, yangi iste'molchilarni jalb qilish, bozor ulushini kengaytirish va daromadlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, innovatsiyalar jamiyat uchun ham keng ko'lamli ijobiy natijalar beradi — yangi ish o'rinlari yaratiladi, iqtisodiyotning diversifikatsiyasi kuchayadi, milliy iqtisodning barqarorligi va mustaqilligi ta'minlanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham innovatsiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Tadbirkorlikda innovatsiyalarni joriy etish, uning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotning umumiy o'sishiga hissa qo'shish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Shunday qilib, innovatsiya tushunchasi iqtisodiy jarayonlarda mahsuldorlikni oshirish, raqobatni kuchaytirish va yangi imkoniyatlar yaratish uchun muhim omil ekanligi bilan ajralib turadi.

Tadbirkorlik subyektlari uchun innovatsiyalarni joriy etish va rivojlantirishda turli strategiyalar qo'llaniladi. Har bir strategiya korxonaning o'ziga xos imkoniyatlari, maqsadlari va tashqi sharoitlari asosida tanlanadi. Quyida tadbirkorlikda keng tarqalgan asosiy innovatsion strategiyalar va ularning tavsifi keltirilgan:

Bu strategiya yangi mahsulot yoki xizmatlarni yaratish yoki mavjud mahsulotlarni sezilarli darajada takomillashtirishga qaratilgan. Mahsulot innovatsiyasi bozorda mijozlarning talablarini qondirish, raqobatchilardan farqlanish va yangi bozor segmentlarini egallash imkonini beradi. Tadbirkorlik uchun mahsulot innovatsiyasi tezkor javob berish, kreativlik va mijozlarga moslashish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, yangi dizayndagi kiyim-kechak ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohasida yangi turdagi paketlar joriy etish — mahsulot innovatsiyasiga misoldir.



Bu strategiya ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonlarini yaxshilash, optimallashtirish va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan. Jarayon innovatsiyasi korxonaning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, vaqtni tejash va sifatni yaxshilash imkonini beradi. Tadbirkorlikda bu strategiya ko'pincha yangi texnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirish yoki xizmat ko'rsatish usullarini takomillashtirish ko'rinishida amalga oshiriladi. Masalan, avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlarini joriy etish, ishlab chiqarish liniyasini yangilash — jarayon innovatsiyasiga misol bo'la oladi.

Marketing innovatsiyasi bozorlarga yangi chiqish usullarini yaratish, yangi savdo kanallari ochish yoki iste'molchilarga taqdim etilayotgan mahsulot va xizmatlarning taqdimotini yaxshilashga qaratilgan. Tadbirkorlikda marketing innovatsiyasi mijozlar bilan yanada yaqin munosabatlar o'rnatish, brendni rivojlantirish va sotuv hajmini oshirish imkonini beradi. Misol tariqasida onlayn savdo platformalarini joriy etish, ijtimoiy tarmoqlarda reklama kampaniyalarini tashkil etish keltirilishi mumkin.

Bu strategiya korxona ichidagi boshqaruv jarayonlarini, qaror qabul qilish tizimini, kadrlar bilan ishlash usullarini yangilash va samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Tadbirkorlikda boshqaruv innovatsiyasi jamoa ishini muvofiqlashtirish, resurslarni samarali taqsimlash va raqobatbardosh afzalliklarni yaratishda muhim omil hisoblanadi. Misol uchun, elektron boshqaruv tizimlarini joriy etish, kadrlar motivatsiyasini oshirish uchun yangi mexanizmlarni yaratish boshqaruv innovatsiyalariga kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, innovatsion rivojlanish bugungi kunda nafaqat iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlash omili, balki har bir davlatning strategik ustunligiga aylangan. O'zbekiston sharoitida tadbirkorlik subyektlari bu jarayonda muhim harakatlantiruvchi kuch bo'lib, ularning innovatsiyalarni joriy etishdagi faolligini oshirish iqtisodiyotning umumiy samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlikda innovatsion strategiyalarni to'g'ri tanlash va ularni moslashtirilgan tarzda qo'llash orqali korxonalar nafaqat o'z pozitsiyalarini mustahkamlashi, balki yangi bozor segmentlarini egallashi ham mumkin. Innovatsiyalar mahsulot sifati va xizmat darajasini oshiradi, raqobat muhitida ustunlik beradi hamda iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi. Shuning uchun, davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, ichki va tashqi muhit omillarini hisobga olgan holda strategik yondashuvlarni shakllantirish tadbirkorlikning innovatsion rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 23.12.2017y. <http://dd.gov.uz/uz/news/534>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6102462>.
3. Дудин, М.Н., Иващенко, Н.П. Стратегическое управление инновационным развитием предпринимательских структур в контексте экономики знаний // Экономика и предпринимательство. - 2016 г. - № 2 (ч.2). - С. 907-914.
4. Александрова, Т. В., Шилова, Е. В. Инновационный менеджмент [Электронный ресурс]: учеб. пособие / Т. В. Александрова, Е. В. Шилова; Перм. гос. нац. исслед. ун-т. - Пермь, 2019. - Ч. 2. - 169 с. Режим доступа: <http://www.psu.ru/files/docs/science/books/uchebnie-posobiya/shilova-innovacionnyj-menedzhment-ch2.pdf>.
5. Ридель, Л. Н., Евсеева, С. Е. К вопросу о современных подходах к классификации инновационных стратегий // Вестник Сибирского института бизнеса и информационных технологий. - 2019. - №2(30). - С. 55-60.
6. Дорошенко, Ю.А., Кривцова, Д.В. Методы разработки инновационной стратегии предприятия //Белгородский экономический вестник. - 2017 г. - № 2 (86). С. 3-7.
7. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik 2017-2020. Statistik to'plam. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. 189 bet. Toshkent. – 2021.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. 20.08.2021y. <https://president.uz/uz/lists/view/4551>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>